

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SIYOSAT YURITISH TAMOYILLARI VA AHOLIGA KO‘RSATILAYOTGAN IJTMOIIY YORDAMLAR

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatimizda aholining turli ijtimoiy guruhlarini, jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga ijtimoiy ta‘minot xizmatlarini ko‘rsatish, daromadlarini oshirish hamda turmush darajasini yaxshilashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida ijtimoiy siyosat yuritish tamoyillari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Shuningdek, hozirda O‘zbekistonda aholiga, ya‘ni ijtimoiy tomondan yordamga muhtoj qatlamlarga, yoshlarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamlar va uning natijasida jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, siyosat, iqtisodiy mexanizm, ijtimoiy himoya reyestri, temir daftar, ayollar daftari, Konstitutsiya.

Ijtimoiy siyosat deganda, inson hayoti faoliyatining barcha sharoitlari yig‘indisini, moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni kafolatlovchi ta‘lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, pensiya ta‘minoti, uy-joy kommunal xo‘jaligi, jismoniy tarbiya va sport, maishiy va ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor jihatlari aks etgan muayyan tizimni tushunish taomilga kirgan. Ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish natijasida ma‘naviy boy va jismoniy sog‘lom kishilarni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Yangilanish va taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan o‘zbek modeli bosh ustuvor yo‘nalishi zaminida inson manfaatlari yotadi va unda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish markaziy o‘rin egallaydi. Bugun respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash, ish haqi va boshqa pul daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib

SJIF: 5.051

borish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. O'z navbatida aholi pul daromadlarining o'sishi uning barcha qobiliyatlarini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar hajmini oshirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Respublikada mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilishga oid bir necha qonunlar va maqsadli davlat dasturlari qabul qilindi va joriy qilindi.

Har bir davlatda ijtimoiy siyosat yuritish bevosita insonlarning turmush darajasi, ularning farovonligi va iste'molining oshishi bilan bog'liq. Ijtimoiy soha inson hayotini takomillashtirish, ijtimoiy iste'molga bo'lgan talablarni, jumladan, turarjoy, bilim olish, kasb-korlikka va malakaga ega bo'lish, sog'liqni saqlash va mustahkamlash, dam olish, madaniy va ma'naviy yetuk bo'lishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuidir.

Yangi O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, "Aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo’lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o’rganish, balki ta’minlashdan iborat”.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi-bu moddiy yordam ko’rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek davlat uchun alohida xizmat ko’rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar tizimidir.

O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitlaridan kelib chiqadigan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish, bandlikni ta’minlash va aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. So‘nggi yillarda ushbu siyosat 2022-2026-yillarda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida xotin-qizlar faolligini oshirish Milliy dasturi va oila va ayollarni tizimli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident Farmonida o‘z aksini topadi.

Yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 58-moddasida ayollar va erkaklar tengligi, davlat jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ushbu tenglikni ta’minlashi to‘g‘risidagi qoidalar aks ettirilgan. Umuman olganda, 40 dan ortiq normativ hujjatlarda O‘zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy siyosat masalalari aks ettirilgan.

Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mahallaboy”, “xonadonbay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etildi. Shu asosda muammoga oid mavhum ko‘rsatkichlar emas, balki yordam va ko‘makka

muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar va yoshlarning muammolari aniq o'rganilib, hal etilmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish bugungi kunda amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila-tadbirkor", "Yoshlar-kelajagimiz" kabi dasturlar o'z ijobiy natijasini bermoqda.

2021-yildan boshlab "Ayollar daftari" instituti, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj ayollarni bosqichma-bosqich va tizimli yordam ko'rsatishning maxsus tizimi sifatida joriy etildi. Ushbu tizim ayollarning ehtiyojmand toifalari bo'yicha ishlaydi va uning asosiy maqsadi ayollarning turmush darajasini bosqichma-bosqich yaxshilashdir. "Temir daftar" esa ijtimoiy ahvoli va turmush darajasi og'ir oilalarni qayd etish, muammolarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

"Yoshlar daftari"ga ham 14 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan va ishsiz, nogironligi bor, profilaktik nazoratda turuvchi, kasb-hunar va ilm o'rganishga ishtiyoqi yuqori yoshlar, boquvchisini yo'qotgan, mehribonlik uyida tarbiyalangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar kiritiladi.

Prezidentimizning PK-300 Farmoniga binoan 2022-yilda mahallalarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning kompleks yondashuv tizimi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda ehtiyojmandlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning keng qamrovli mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda. Prezident farmoniga muvofiq, ijtimoiy yordamning barcha turlarini bir xil mezon va bir xil hujjatga muvofiq taqdim etish imkonini beradigan "Yagona ijtimoiy reyestr" yaratildi. Jamiyatimizda "Yagona ijtimoiy reyestr" dasturining ishga tushirilishi inson omilini sezilarli darajada

minimallashtiradi va natijada ijtimoiy yordamni taqsimlashdagi korrupsiya holatlarini bartaraf etadi. Bu dastur orqali kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan belgilangan tartib asosida, bepul, imtiyozli shartlar asosida kafolatlangan yordamlar va xizmatlarni olish mumkin.

Prezidentimizning 2020-yil 4-avgustdagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida xuddi shunday ijobiy jihatlar inobatga olinib, ijtimoiy himoya yagona reystrini respublikaning barcha hududlarida joriy etish vazifasi qo'yildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirda O'zbekistonda ijtimoiy siyosat yuritish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam ko'rsatib, ularni qo'llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlar salohiyatini rivojlantirib, munosib turmush sharoitlariga erishish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga aholi o'rtasida bandlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar eng avvalo, aholi farovonligining oshishi, so'ngra inson kapitalining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.E.Mamaraximov, M.K.Abdullayeva. Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati. Toshkent. 2022.
2. Saidova. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning gender vektori. 2023.
3. G'.Xolmurodov. Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Philosophy va law journal. 2024.
4. B.Yusupov. Ijtimoiy siyosat-O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi. 2021.

5. A.Qorjovov. Ijtimoiy himoya yagona reyestri qanday maqsadlarga xizmat qiladi? 2022.